



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 92 sahifa,
16-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli savodxonlikni rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalarining pedagogik va metodologik imkoniyatlari.....	10
Shermanova Feruza Djumaboyevna	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarining boshqaruv madaniyati	15
Xurramov Anvar Vafqulovich	
5–7 yoshli bolalar jismoniy rivojlanishida futbol o'yin elementlarining pedagogik ahamiyati	19
Olim Ziyoyev Toshpulatovich	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish usullari.....	23
Ashirov Abdirashid Ravshanovich, G'ulomova Durdona Shovkat qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish metodikasi	26
Ashirov Abdirashid Ravshanovich, Olimjonova Humora	
Algebra va funksiya: SAT matematikasining asosi	30
Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich	
Psixologik savodxonlikning psixologik xizmat samaradorligini ta'minlashdagi nazariy va amaliy asoslari	34
Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich	
Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarda pedagogik odobni rivojlantirish muammosi	40
Fayzullayeva Feruza Aktamjon qizi	
Yosh oilalarning mustahkamligiga zamonaviy axborot vositalaridan foydalanishning ta'siri	44
Kushakova Nargiza Islambaevna	
Strategic Educational Management: Methods for Improving Teaching and Learning Outcomes	47
Majitova Munisa Oybek qizi	
Talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	51
Normurodova Qunduz Tursun qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish	54
Nurmaxmatov Lutfulla Abduxomid o'g'li	
Savod o'rgatish davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	58
Po'latova Sitara Olimjonovna	
Yosh sportchilarni tarbiyalash va huquqiy himoya qilishning pedagogik mexanizmlari	62
Rahmonov Amirshoh Abdumuxtorovich	
Bo'lajak kimyo o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish.....	66
Shomurotova Sh. X.	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning metodika asoslari	70
Shukurova Zarina Mirobid qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi	
Raqamli savodxonlikni rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalarining pedagogik va metodologik imkoniyatlari.....	73
Shermanova Feruza Djumaboyevna	
Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetentligini rivojlantirishda art-pedagogik texnologiyalar .	77
Suvanova Kamola Raimqul qizi	
O'quvchilarning mustaqil fikrlash samaradorligini oshirishda muammoli ta'lim texnologiyasining o'rni.....	81
Zikriyoyeva Feruza Sadullo qizi	
Обучение основам ультразвуковой диагностики с использованием метода “Каждый учит каждого” ...	85
Набиев Абдулло Абдувохидович	
To'lepbergen Qayipbergenov asarlarida komil insonni tarbiyalash masalalari	88
Xabibnazarova Saiyra Baxitbayevna	

YOSH OILALARNING MUSTAHKAMLIGIGA ZAMONAVIY AXBOROT VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING TA'SIRI

Kushakova Nargiza Islambaevna

Nizomiy nomidagi TDPU "amaliy psixologiya" kafedrasida dotsent v. b.

Annotatsiya: Maqolada yosh oilalarning mustahkamligiga internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri masalalari yoritilgan. Shuningdek, internetning ijobiy va salbiy tomonlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ayniqsa, hozirgi zamonda internet tarmog'i orqali tarqatilayotgan, yosh oila vakillari ongiga salbiy ta'sir etuvchi ma'lumotlar, turli g'oyalar, ijtimoiy normalarga zid bo'lgan materiallar hamda yoshlar xulq-atvorida og'ishishga sabab bo'luvchi omillar borasida ilmiy-nazariy ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: yosh oila, globallashuv, internetga tobeklik, ijtimoiylashuv, ijtimoiy tarmoqlar, g'oyaviy-mafkuraviy immunitet, axborot, zamonaviy vositalar, psixologik ta'sir.

Abstract: The article examines the impact of the Internet and social networks on the stability of young families. It also provides information on the advantages and disadvantages of the Internet. In particular, the article presents scientific and theoretical insights into the negative impact on the minds of young families, including various ideas, materials that contradict social norms, and factors leading to behavioral deviations among youth.

Key words: young family, globalization, Internet addiction, socialization, social networks, ideological immunity, information, modern media, psychological influence.

Аннотация: В статье рассматривается влияние интернета и социальных сетей на устойчивость молодых семей. Также представлена информация о положительных и отрицательных сторонах Интернета. В частности, приведены научно-теоретические сведения о негативном воздействии на сознание молодых семей различных идей, материалов, противоречащих общественным нормам, а также факторов, приводящих к отклонениям в поведении молодежи.

Ключевые слова: молодая семья, глобализация, интернет-зависимость, социализация, социальные сети, идеологический иммунитет, информация, современные СМИ, психологическое воздействие.

KIRISH

XXI asrda axborot bo'roni barcha insoniyatni o'z domiga tortib bormoqda. Shu sababli bugungi kunda tashqi olamdan kelayotgan axborotlar oqimiga nisbatan yoshlarda kuchli immunitetni shakllantirish va uning yangi etnopsixologik yo'llarini kashf etish zamonaviy psixologiyaning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy makon ayni vaqtda axborot makoni hamdir. Globallashuv sharoitida axborot hajmining kattaligi, ularning zamonaviy tezkor vositalari orqali tarqatilishi axborot sohasining ijtimoiy makonning boshqa shakllaridan tubdan farq qilishini ta'minlamoqda. Xususan, zamonaviy ommaviy axborot vositalari (ayniqsa, internet tizimi) orqali tarqatilayotgan xabar va ma'lumotlarga turli siyosiy taqiqlar, davlat chegaralari to'siq bo'la olmaydi. Shunday ekan, jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lgan oilalar va undagi turli avlod vakillarining ijtimoiy-psixologik rivojlani-shiga har tomonlama ta'sir qiluvchi internet tarmoqlarini tadqiq qilish hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Darhaqiqat, yosh oilalar jamiyatning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi va ularning mustahkam bo'lishi millatning ertangi kunini belgilab berishi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

Yosh oila a'zolari tezkor axborot vositasi hisoblangan internetdan muntazam ravishda foydalanib kelmoqda, bu esa zamonaviy hayotning bir ko'rinishi sifatida baholanadi. Ammo mazkur axborot vositalaridan to'g'ri foydalanish, ularda keltirilgan turli ma'lumotlarni tahlil qila olish va ularni amalda qo'llash eng murakkab jarayonlardan biridir. Bundan tashqari, bunday axborot vositalariga ma'lumotlarni joylashtirish va tarqatishda shaxsga nihoyatda katta mas'uliyat yuklanishini ko'pgina yoshlar yetarlicha anglab yetmaydi, natijada bu holat oilaviy munosabatlarning buzilishiga olib kelishi mumkin. Aksariyat hollarda yosh oila vakillari internet olamiga



turli maqsadlarda, xususan, oilaviy munosabatlarni yaxshilash, oilaviy byudjetni rejalashtirish yoki shunga o'xshash faoliyatlar haqida ma'lumot olish uchun kiradi. Biroq bunday vaziyatlarda asosiy maqsaddan chalg'ituvchi, inson psixikasiga salbiy ta'sir etuvchi axborotlar domiga tushib qolish ehtimoli mavjud bo'lib, go'yoki o'zlari uchun qiziqarli, ammo aslida xavfli bo'lgan ma'lumotlarni muntazam kuzatib borish natijasida asta-sekin internetga tobelik muammosiga duch kelishlari mumkin.

Yuqorida tilga olingan holatlar, ayniqsa, yosh oilalarda dunyoqarashi tor yoki ma'lum bir soha bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lmagan shaxslarda turli o'yinlar yoki kinofilmlarga nisbatan tobelikning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, bunday ko'ngilochar tarmoqlar asta-sekin targ'ibot manbayiga aylanib borishini ham ular ko'pincha anglab yetmaydilar. Mazkur turdagi targ'ibot ishlari, avvalo, inson tafakkuri va ongida, so'ngra esa dunyoqarashida katta o'zgarishlarni yuzaga keltiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida internetga tobelik masalalarining ilmiy-nazariy asoslari ochib berilgan.

Jumladan, rossiyalik olimlar V.L. Malign, N.S. Xomeriki va E.A. Smirnova izlanishlariga ko'ra, internetga tobelik o'smirlar guruhida tajovuzkorlik, xavotirlanishga moyillik, emotsional va kommunikativ sohadagi buzilishlarga olib kelishi mumkin [6].

J. Markof va K. Xefnerning "Xakerlar" kitobida hamda shu kabi boshqa asarlarda xakerlarning portretlari, ularning umumiy sifatleri va ayrim psixologik xususiyatlarini kuzatish mumkin. Xususan, ko'pchilik xakerlar juda yuqori darajadagi aql sohibi bo'lishadi. Buning sababi shundaki, xakerlar uchun masofaviy kompyuterlarga muvaffaqiyatli kirish, telefon va boshqa texnika tizimlari haqida zarur bilimlarga ega bo'lish jarayonida yuqori kognitiv qobiliyatlar talab etiladi [6].

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, axborotlar turli ijtimoiy qatlamlar, professional va milliy guruhlar vakillariga turlicha ta'sir ko'rsatadi, shu bilan birga, uni suiiste'mol qilish amaliyoti ham turli guruhlarda keskin farq qilishi mumkin. Bu, avvalo, axborot manbalarining ayrim hollarda minimal (televideniye, radio), boshqalarida esa keng (internet, yangi telekommunikatsiya tizimlari) bo'lishi bilan izohlanadi. Mutaxassislar fikriga ko'ra, bugungi kunda jamiyatda aynan axborotni olish va unga yo'l topish sohasida keskin tabaqalanish yuz bermoqda [5; 189-b.].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yoshlar o'zining harakatchanligi, yangilikka intiluvchanligi va bo'sh vaqt resursiga egaligi tufayli yuqori darajada kommunikativ faollik ko'rsatadi, boshqa guruhlarda esa nisbatan passivlik kuzatiladi. Ularga xos bunday xususiyatlar salbiy oqibatlarini ham keltirib chiqarishi mumkin. Bu birinchi guruh uchun tobora faollashayotgan agressiv siyosiy ta'sirga berilib ketish xavfining mavjudligida, ikkinchi guruhning esa pozitiv mazmunga ega axborotlar ta'siridan tashqarida qolishi bilan izohlanadi [3; 155-b.].

Shuningdek, iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy va boshqa sohalardagi axborotlar o'zaro ta'sirlashuvi ijtimoiy hayotning mazmunan boyishi va takomillashuvining muhim omili hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bugungi kunda axborot almashinuvi insoniyat taraqqiyotining muhim shartiga aylangan.

Axborot tarmoqlarining yo'nalganligi mohiyatiga e'tibor qaratsa, ularni mantiqiy tahlil asosida ikki guruhga ajratish mumkin: ijobiy (ilmiy asosga va mantiqiy tasdiqqa ega) hamda salbiy (ilmiy va mantiqiy tasdiqqa ega bo'lmagan) tarmoqlar. Har ikki tur axborot tizimiga joylashtiruvchilarning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga bog'liq bo'lib, mazkur maqsadlarga mos axborotlarni turli ko'rinishda tarqatish imkonini beradi. Ijobiy tarmoqlarga xalqimiz tarixi va qadriyatlariga mos ma'lumotlar, umumbashariy ilmiy manbalar hamda asosli axborotlarni qamrab olgan vositalarni kiritish mumkin. Misol uchun, yosh tadqiqotchi olimlar tomonidan oilalar farovonligini ta'minlaydigan ijobiy tarmoqlarni yaratish bo'yicha olib borilayotgan izlanishlar jamiyat a'zolari uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Qolaversa, bugungi kunda yosh uy bekalari uchun xonadon yumushlarini bajarishda yengillik berayotgan, "yaxshi maslahatchi" vazifasini bajaruvchi internet tarmoqlari ham mavjud bo'lib, ulardan unumli foydalanish kundalik hayotdagi vazifalarni amalga oshirish jarayonini soddalashtiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Internet tarmoqlaridan to'g'ri foydalanish yosh oila vakillarining oilada yuzaga keladigan turli muammoli vaziyatlarning oldini olib, mavjud muammolarni bartaraf etishda ijobiy natijalarga olib kelishi bilan bir qatorda, oilani mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Buning uchun yoshlarning internet tarmoqlaridan to'g'ri foydalanish malakalarini muntazam takomillashtirib borish lozim. Axborot iste'moli, aniqrog'i, ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan hodisadir. Axborot iste'moli xizmatlar iste'molining o'ziga xos shakli hisoblanadi. Ma'lumki, har qanday xizmatni iste'mol qilishdan avval uning sifati, narxi, foydasi, qulayligi va boshqa xususiyatlari inobatga olinadi. Masalan, taklifi kamayib ketgan xizmatlarning iste'mol darajasi yuqori bo'lib, ularga talab kuchayadi.

Mazkur xususiyatlar axborot iste'moli jarayoniga ham xosdir. Biroq ma'naviy ne'mat bo'lgan axborotni iste'mol qilish o'ziga xos jihatlari bilan ham ajralib turishini ta'kidlash joiz. Xususan, axborot konkret shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat va davlat tomonidan iste'mol qilinadi, mazkur darajalarda iste'mol jarayonlari bir-biridan farq qiladi. Masalan, biron shaxs uchun qiziqarli bo'lgan ma'lumot muayyan ijtimoiy qatlam yoki guruh uchun ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Shuningdek, axborot makon va zamon xususiyatlariga ham ega.

Chunonchi, G'arbda o'ta ommabop bo'lgan axborotlar Sharq xalqlari tomonidan kam iste'mol qilinishi mumkin. Bundan tashqari, ma'lum bir tarixiy davrda katta qiziqish bilan kutib olingan ma'lumotlar vaqt o'tishi bilan odatiy holga aylanishi va ijtimoiy hayotda bu tarzda in'ikos etmasligi mumkin [1: 258-b].

Axborot iste'moli, kim tomonidan iste'mol qilinishidan qat'i nazar, qabul qilish, tushunish va talqin etish kabi bir-biri bilan uzviy bog'liq bosqichlarda amalga oshadi. Bugungi kunda axborot iste'moli jarayoni ham o'ziga xos madaniyatni taqozo etmoqda, madaniyatning bunday shakli insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismiga aylanishi zarur. Axborot iste'moli madaniyati globallashuv jarayonlarining xarakterli xususiyatlaridan biri bo'lgan internet tarmog'i jadal rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun hozirgi davr yoshlari oldida axborot tanlash imkoniyati shu qadar yuqoriki, uning talabini qondira olmaydigan ma'lumotlar bir zumda o'z qimmatini yo'qotadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, hozirgi davrda axborot iste'moli avvalgilardan tubdan farq qiladi.

Oliy ta'limda bilim olish, ishlab chiqarishning biror sohasida faoliyat ko'rsatish kabi jarayonlarda internet manbalaridan to'g'ri foydalanish davr talabiga aylanib bormoqda. Mazkur holatlarni inobatga olgan holda, yoshlarni internetdan ilmiy maqsadlarda foydalanish madaniyatini har tomonlama takomillashtirish uchun maxsus kurslarni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Fan-texnika taraqqiyoti shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda aksariyat yoshlar (ayniqsa, yosh bolali talaba ayollar) soatlab kutubxonalarda ishlash imkoniyatiga ega emas. Bunday holatlarning yechimi sifatida internetdan unumli foydalanish, undagi elektron axborot resurslaridan zarur ilmiy ma'lumotlarni olish kabi imkoniyatlarni keltirish mumkin. Internet tarmoqlaridan to'g'ri foydalanish olish yosh oilalarning mustahkamligini ta'minlash bilan bir qatorda, ularda o'ziga bo'lgan ishonchni oshirib, fan sohasida yangi bilimlarni o'zlashtirish orqali ilmiy izlanishlariga keng yo'l ochib beradi [3: 155-b].

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, inson asosan axborot ta'siri va muhitida dunyoni anglaydi hamda hayot va faoliyatining yo'nalishini belgilab oladi. Axborot o'zining mazmuni va xilma-xilligi bilan farqlanib turadi. Biroq u qanday bo'lmasin, yoshlar ongi, kayfiyati va hissiyotlariga ijobiy yoki salbiy ta'sir etuvchi muhim vositadir. Internet va boshqa vositalar orqali axborot tarqalishini tartibga solishda nafaqat vakolatli davlat organlari, balki nodavlat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari ham faol ishtirok etishlari maqsadga muvofiqdir.

Shunday ekan, axborot xurujlari avj olgan globallashuv sharoitida har bir mas'ul xodim, mafkurachi, tarbiyachi va rahbar o'z ish usulini o'zgartirishi, muloqot qobiliyatini takomillashtirishi lozim. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari orqali ta'sir kuchaygan hozirgi sharoitda yoshlarning ma'naviy jihatdan yetuk bo'lishi nihoyatda muhim bo'lib, ularning ongini psixologik himoya qilishga alohida e'tibor qaratish hamda bu borada psixologik holat va hodisalarni chuqur bilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гатчин Ю. А., Сухостат В. В. Теория информационной безопасности и методология защиты информации. – СПб.: СПбГУ ИТМО, 2010.
2. Доценко Е. Л. Психология манипуляции: феномены, механизмы и защита. – М.: Речь, 2004.
3. Do'stmuhammad X. Globallashuv davri va axborot makoni // O'zbekiston matbuoti, 2007-yil, 3-son.
4. Захарова Ю. Б. О моделях психологической защиты на уровне межгруппового взаимодействия // Вестник Московского университета. Серия 14. Психология. – 1991. – № 3.
5. Samarov R. Axborotning psixologik xavfsizligini ta'minlash mexanizmi: uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Universitet, 2015.
6. <https://ecohotnadzor31.ru/uz/vliyanie-internet-zavisimosti-na-razvitie-lichnosti.html>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.